

XORAZM VOHASI O'ZBEKLARINING ZAMONAVIY EKOLOGIK MADANIYATI**Egamberganova Matluba Jobborgonovna****PhD.,dots.****Urganch innovatsion universiteti****matluba93@urgiu.uz****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14533322>**

Xorazm vohasi azaldan o'zining boy tarixi, madaniyati va noyob tabiiy sharoitlari bilan mashhur. Bu yerda yashagan xalqlar asrlar davomida o'zlarining etnoekologik madaniyatini shakllantirdilar, ya'ni tabiat bilan uyg'unlikda yashab, uning xususiyatlariga moslashishga o'rganishdi.

Ekologik madaniyat-bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvdir[1]. Umumiy ma'noda olib qarasak, ekologik madaniyat atrof-muhitdan tabiatning rivojlanish qonuniyatlarini anglab yetgan holda, inson faoliyati ta'sirining yaqin va uzoq kelajakdagi oqibatlarini inobatga olgan holda foydalanishdir.

Ekologik madaniyat insoniyatning yangi madaniyati bo'lib, u insonning ekologik jihatdan sog'lom xulq-atvori, faoliyati, inson va ijtimoiy-tabiiy muhit o'rtasidagi munosabatlarning yangi sifat darajasini rag'batlantiradigan qadriyat yo'nalishlarini belgilaydi. Keng ma'noda ekologik madaniyat insoniyat madaniyatining yangi mazmunidir. Tadqiqot muammosini har tomonlama tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, insonda tabiat oldidagi burchlarini yangicha tushunish, yangi dunyoqarashni shakllantirish juda qiyin.

Xorazm vohasining etnoekologik madaniyatini quyidagi xususiyatlar orqali tahlil qilishimiz mumkin:

Suv manbalari bilan bog'liq madaniyat:

Xorazmnинг eng muhim boyligi - bu suv. Vohada suv resurslarini taqsimlash va ulardan foydalanishda o'ziga xos an'analar shakllangan. Sug'orish tizimlari, ariqlar, suv omborlari qurilishi aholining o'ziga xos bilim va texnikasini aks ettiradi. Suv bilan bog'liq urf-odatlar va marosimlar ham etnoekologik madaniyatning bir qismi hisoblanadi. Vohada suv bilan bog'liq madaniyat zardushtiylik davridan shakllangan bo'lib, suv to'rt muqaddas unsurning biri hisoblangan. Shu sababdan daryolar, ko'llar yoki quduqlar har qanday nopliliklardan qat'iy himoya qilingan. Biror noplok narsani yuvish kerak bo'lsa, avvalo, suv maxsus joyga to'plangan. Bunda noplok narsa avval sigir siyidigi bilan yuvilib, quyoshda yoki qumda quritilgan va oxirgi poklash bosqichida suv bilan yuvilgan. Shuningdek, yomg'ir yoqqan paytda tashqariga chiqish taqiqlangan. Chunki bu bilan suvni va yerni "makruh" qilib qo'yish mumkin, deb o'ylaganlar. Suvni isrof qilish va bulg'ash og'ir gunoh hisoblangan. "Avesto"da bu borada "Pokiza suv va yonib turgan olov oldida gustohlik qilgan zotning do'zaxda topguvchi jazosi bu dunyoning jamiyki dardu ozorlaridan mudhishdir",[2] – deyilgan. Zardushtiylik bilan bog'liq an'analar hozirgi kunda ham voha hayotidan muhim o'rinn olgan bo'lib, buni kundalik turmushda ham kuzatish mumkin. Jumladan, Xorazm viloyati Xiva tumani sayot qishlog'ida o'tgan asrning oxirlarigacha maxsus darvishonalar o'tkazilgan bo'lib, bunda qishloqdan oqib o'tgan kanalga qora ho'kizni qurbanlik qilishgan. Bu orqali suv xudosi tinchlanadi va odamlarni halok qilmaydi degan qarash bo'lgan[3].

Qishloq xo'jaligi va tabiat bilan uyg'unlik:

Xorazm vohasi aholisi asosan qishloq xo'jaligi bilan mashhur. Hududda paxta, bug'doy, guruch, qovun singari qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiriladi. Xorazmnинг gurvak, o'rik,

uzum singari mahsulotlari tabiiy sharoitga moslashgan va etnoekologik madaniyatning bir qismi hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi texnologiyalari va usullari tabiatga zarar yetkazmaslikka qaratilgan.

Hayvonot olami va o'simliklar dunyosi:

Xorazm vohasida turli xil hayvonot olami va o'simliklar dunyosi mavjud. Qush turlari, suvda yashovchi hayvonlar, o'simliklar va o'tlar xilma-xildir. Mahalliy aholi tabiat bilan uyg'unlikda yashaganligi sababli, o'simlik va hayvonot dunyosini himoya qilishga e'tibor qaratgan. O'simliklardan dori-darmon sifatida foydalanish, hayvonlarni ovlashning o'ziga xos qoidalari etnoekologik madaniyatning bir qismi hisoblanadi. Tabiatda mavjud bo'lgan mavjudotlarni ulug'lash bilan bog'liq an'analarni ham inson fe'l-atvoriga ta'sir etuvchi an'ana va marosimlarni ham barqaror urf-odat va qadriyatlar deb ham atash mumkin. Biroq an'ana, odat va marosimlar garchi tabiat bilan bog'liq dunyoqarashlar asosida shakllangan bo'lsada, davr va tashqi ta'sir natijasida o'zgarib borgan

Turar-joylar bilan bog'liq madaniyat:

Xorazm vohasida loy va g'ishtdan qurilgan uylar, masjidlar, madrasalar va boshqa binolar o'ziga xos uslubda qurilgan. Bino qurilishida tabiatga xos materiallardan foydalanish etnoekologik madaniyatning bir qismi hisoblanadi. Binolarning joylashuvi, xona havosini tozalatish, yorug'lik tushishi kabi jihatlar iqlim sharoitiga moslashtirilgan.

Urf-odat va an'analar:

Xorazm vohasining boy madaniyati tabiat bilan bog'liq urf-odatlari va marosimlarda aks etadi. Ba'zi urf-odatlari tabiatning o'ziga xos xususiyatlari moslashtirilgan. Odamlarning tabiatga, o'simlik olamiga bo'lgan munosabati va mehrini belgilovchi tabiat bayramlaridan "Navro'z", "Hirmon bayrami", "Qovun sayli"ni ko'rsatib o'tish mumkin. Xalq qo'shiqlari, ertaklari, afsonalari tabiat bilan bog'liq hodisalarini va o'ziga xos o'simlik va hayvonot dunyosini aks ettiradi. Tabiat yaratgan moddiy ne'matlardan isrofgarchilik bilan foydalanish, tabiat resurslari - yer osti boyliklari, suv, yer, o'simlik va hayvonot dunyosiga zarar yetkazish uvol sanalib, ushbu tushunchani tor ma'noda non, suv, tuz, olovdan tejab-tergab foydalanishni nazarda tutsa, keng ma'noda butun tabiat boyliklaridan, noz-ne'matlardan oqilona foydalanishni aks ettiradi[4].

Zamonaviy davrda ekologik muammolar:

Hozirgi kunda Xorazm vohasi suv tanqisligi, tuproq sho'rланishi, cho'l bosib kirishi kabi ekologik muammolarga duch kelmoqda. Etnoekologik madaniyatni saqlash va tiklash, bu muammolarni hal qilishda muhim rol o'ynaydi. Bugungi kunning asosiy muammolaridan biri Orol fojeasidir. Orol dengizining qurib ketishining sababi-dengiziga suv yetkazib berishning kamligi, uning iqtisodiy ehtiyojlari, masalan, Amudaryo va Sirdaryordan paxta va g'alla uchun foydalanish bilan bog'liq sug'orish tizimining noto'g'riligidir. Natijada Orol dengizi asta-sekin qurib bordi[5].

Xorazm vohasining etnoekologik madaniyati tabiat bilan uyg'unlikda yashagan xalqlarning o'ziga xos bilim va tajribasini aks ettiradi. Bu madaniyatni saqlash va tiklash-bu kelajak avlodlarga o'zining boyliklaridan foydalanish imkonini berish demakdir.

References:

1. Алихонов Б., Самойлов С. Ўзбекча-русча-инглизча экологик изоҳли луғат. – Тошкент, 2004. – Б. 225
2. Авесто. Тарихий-адабий ёдгорлик. Асқар Маҳкам таржимаси. — «Шарқ», 2001. – Б.

122.

3. Dala axboroti. Nurullayeva Gulbahor. Xiva tumani sayot qishlog'i. 2024-yil.
4. Dala axboroti. Bayramova Ra'no. Xonqa tumani G'alaba qishlog'i. 2024-yil.
5. M. Mamanazarov, Water resources: social, economical, ecological problems (2008). P. 78.

